



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil 6-son

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR  
TARIXI

- 5 HAYITOV SHERZOD  
RAXMATULLAYEVICH**  
Huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari:  
nazariy-huquqiy tahlil

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 17 MADIYEV FAXRIDDIN XOSHM O'G'LI**  
Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi tushunchasi  
va uning huquqiy tabiati
- 29 ILXOMBEKOV JASURBEK ILXOMBEK O'G'LI**  
Internet tarmog'idan axborot olish jarayonini  
huquqiy jihatdan tartibga solish va amalga  
oshirishda vujudga keladigan muammolar
- 38 КУАТБЕК ГУЛНАР КУАТБЕКОВНА**  
Правовые вопросы ведения интернет-  
ресурсов представительных органов  
местной власти в Узбекистане и Казахстане
- 52 AMIROV SANJAR ILYOS O'G'LI**  
Konstitutsionalizmning paydo bo'lishi va uning  
rivojlanish asoslari

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO'JALIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI  
VA MEDIATSIYA

- 60 XAKBERDIYEV ABDUMURAD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining hal qiluv qarori tushunchasi  
va huquqiy ahamiyati
- 69 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА**  
Функции нотариата в современном  
правовом государстве

- 77 JALILOVA SARDORA ABDUROZIQ QIZI**  
Milliy qonun hujjatlarida mediatsiya institutining umumiy tavsifi hamda ushbu soha doirasida aniqlangan muammolar

**12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ**

- 85 XAMIDOVA MAHBUBA ALIJANOVNA**  
Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yechimi kutilayotgan chora-tadbirlar

**12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI**

- 93 MAXMADIYAROVA XUMORA  
O'KTAMOVNA**  
Sud muhokamasida taraflarning protsessual imkoniyatlari tengligini ta'minlash tortishuv prinsipining muhim sharti sifatida

**12.00.12 – KORRUPSIYA  
MUAMMOLARI**

- 100 NOROV ILKHOM IBROXIMOVICH**  
Exploring dimensions of anti-corruption agencies (in the example of Central Asia)

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 112 МАТЕНОВ РАШИД БЕКИМБЕТОВИЧ**  
О роли новых педагогических технологий в преподавании языковых дисциплин в юридическом вузе

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./AQH09178>

UDC: 34(042)(575.1)

## HUQUQIY EKSPERIMENTNI O'TKAZISH BOSQICHLARI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

**Hayitov Sherzod Raxmatullayevich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Davlat va huquq nazariyasi kafedrası

dotsenti v.b., PhD

ORCID: 0000-0003-3804-7210

e-mail: xayitov085@mail.ru

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada huquqiy eksperiment tushunchasi, uning turlari hamda tasnifi, shuningdek, huquqiy eksperimentni o'tkazish bosqichlari milliy va xorij tajribasi asosida tahlil qilingan. Jumladan, huquqiy eksperimentni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni uch bosqichda amalga oshirish taklif etilgan bo'lib, eksperiment o'tkazishga mas'ul bo'lgan subyektlar doirasi ham milliy qonunchilik asosida yoritilgan. Huquqiy eksperiment o'tkazilishi davlat siyosatining, islohotlarining tegishli sohalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, undan foydalanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar, huquqiy eksperiment ta'rifidan uning samaradorligi va natijadorligini baholashda muhim bo'lgan asosiy xususiyatlari ajratib ko'rsatildi. Huquqiy eksperimentning har bir bosqichi mustaqil vazifalar va harakatlar natijalarini aks ettiruvchi hamda mustahkamlovchi muayyan harakatlar va protsessual hujjatlar bilan tavsiflanishi, uning ahamiyati hamda muhimligi asoslantirildi. Maqolada huquqiy eksperiment yuzasidan xulosa va takliflar ilgari surilgan. Huquqiy eksperimentning o'ziga xos xususiyati uning maxsus ishlab chiqilgan maqsadga qaratilgani bo'lib, u yoki bu huquqiy gipotezani sun'iy ravishda yaratilgan muhitda tekshirish hamda eksperiment subyektlarining ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishdagi faol rolini aniqlashdan iborat.

**Kalit so'zlar:** eksperiment, huquqiy eksperiment, norma ijodkorligi, normativ-huquqiy hujjatlar, qonun loyihasi, huquqiy eksperiment subyektlari, mas'ul subyektlar, huquqiy eksperiment bosqichlari, tartibga solish ta'sirini baholash.

### ЭТАПЫ ПРОВЕДЕНИЯ ПРАВОВОГО ЭКСПЕРИМЕНТА: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

**Хайитов Шерзод Рахматуллаевич,**

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и. о. доцента кафедры «Теория государства и права»

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье на основе национального и зарубежного опыта анализируются понятие правового эксперимента, его виды и классификация, а также этапы проведения правового эксперимента. В частности, предлагается осуществлять подготовку и проведение правового эксперимента в три этапа, при этом круг субъектов, ответственных за проведение правового эксперимента, освещается в рамках национального законодательства. Было отмечено, что проведение правового эксперимента положительно влияет на соответствующую сферу государственной политики, реформы, однако выявлены некоторые проблемы, препятствующие использованию правового эксперимента. Из определения правового эксперимента выделены основные характеристики, важные для оценки его эффективности.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./QVBD7337>  
UDC: 343.12(045)(575.1)

## SUD MUHOKAMASIDA TARAFLARNING PROTSESSUAL IMKONIYATLARI TENGLIGINI TA'MINLASH TORTISHUV PRINSIPINING MUHIM SHARTI SIFATIDA

**Maxmadiyarova Xumora O'ktamovna,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha Toshkent shahar  
Chilonzor tuman sudi sudyasi yordamchisi  
ORCID: 0009-0006-3214-8183  
e-mail: humoramahmadiyarova@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada jinoyat ishlari bo'yicha sud muhokamasi jarayonida taraflarning o'zaro tortishuvini kuchaytirish, uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan taraflar protsessual imkoniyatlaridagi tengligini ta'minlash, shuningdek, haqiqatni aniqlash jarayonida sudning o'rnini aniqlash, uning dalillarni to'plash, tekshirish va baholash davrida faollik darajasini belgilash masalalari ayrim rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda aynan shu masalada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan protsessualist olimlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil etildi. Shuningdek, birinchi instansiya sud majlisida jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda sud tergovni bosqichining o'ziga xos o'rnini, aynan taraflarning tortishuviga asoslangan sud tergovni jarayonini takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Maqolada jinoyat protsessida sud tergovni bosqichini rivojlantirish yuzasidan xorijiy davlatlar tajribasi ham o'rganildi. Xorijiy mamlakatlardagi protsessualist olimlarining bu jarayonda sudning isbot qilish jarayonidagi o'rnini takomillashtirish borasidagi fikrlari, amaliyotda o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari, sud tergovida tortishuv prinsipining o'ziga xosligi bayon etilgan. Shu bilan birga, jinoyat ishini ko'rib chiqishda sud tergovni bosqichini takomillashtirish bo'yicha jinoyat-protsessual qonunchilikka o'zgartirish kiritish yuzasidan tavsiya va takliflar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** tortishuv, haqiqatni aniqlash, sud, ayblov taraf, himoya taraf, isbotlash, tenglik.

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ РАВНЫХ ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ СТОРОН В СУДЕБНОМ РАЗБИРАТЕЛЬСТВЕ КАК ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ

**Махмадиярова Хумора Уктамовна,**  
помощник судьи Чиланзарского районного  
суда по уголовным делам города Ташкента

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы усиления взаимной состязательности сторон при судебном разбирательстве по уголовным делам, обеспечения равенства процессуальных возможностей сторон, что является важной его составляющей, а также определения позиции суда в судебном разбирательстве. Процесс установления истины, определение уровня его активности в период сбора, проверки и оценки доказательств, опыт некоторых развитых зарубежных стран и анализ проводились на основе научных взглядов учёных-процессуалистов, проводивших научные исследования по этой проблеме. Также в статье рассматривается конкретная роль стадии судебного следствия при рассмотрении уголовных дел в судебном заседании первой инстанции, а также вопросы совершенствования

процесса судебного следствия на основе доводов сторон. Также в статье анализируется опыт зарубежных стран по развитию стадии судебного расследования в уголовном судопроизводстве. Описаны мнения учёных-процессуалистов зарубежных стран о повышении роли суда в процессе доказывания, результаты исследований, проведённых на практике, своеобразие принципа состязательности в судебном расследовании. Вместе с тем были обсуждены рекомендации и предложения по внесению изменений в уголовно-процессуальное законодательство относительно совершенствования стадии судебного следствия при рассмотрении уголовного дела.

**Ключевые слова:** состязательность, установление истины, суд, обвинение, защита, доказывание, равенство.

## ENSURING EQUAL PROCEDURAL OPPORTUNITIES OF THE PARTIES IN JUDICIAL PROCEEDINGS AS AN IMPORTANT CONDITION OF THE PRINCIPLE OF ADVERSARY

**Makhmadiyarova Khumora Uktamovna,**  
Assistant judge of the Chilanzor District  
Court for Criminal Cases of Tashkent city

**Abstract.** This article discusses the issues of strengthening the mutual competitiveness of the parties in criminal proceedings, ensuring equality of procedural capabilities of the parties, which is an important component, as well as determining the position of the court in legal proceedings. The process of establishing the truth, determining the level of its activity during the period of collecting, verifying and evaluating evidence, the experience of some developed foreign countries and analysis were carried out on the basis of the scientific views of procedural scientists who conducted scientific research on this problem. The article also discusses the specific role of the judicial investigation stage when considering criminal cases in a court hearing of the first instance, as well as issues of improving the judicial investigation process based on the arguments of the parties. The article also analyzes the experience of foreign countries in developing the stage of judicial investigation in criminal proceedings. The opinions of procedural scientists from foreign countries on increasing the role of the court in the process of proof, the results of research conducted in practice, and the uniqueness of the principle of dispute in a judicial investigation are described. At the same time, recommendations and proposals for amending the criminal procedural legislation regarding improving the stage of judicial investigation when considering a criminal case were discussed.

**Keywords:** dispute, truth-finding, court, prosecution, defense, proof, equality.

### Kirish

Jinoyat ishlari yurituvda taraflar tengligi tortishuv prinsipini amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ish yurituvni tortishuvga asoslangan deyish uchun taraflar o'z vajlarini faol keltirishlari, ishdagi holatlar, dalillar yuzasidan bahslashishlari, ular yuzasidan o'z munosabatlarini bildirishlari, dalillar taqdim etishlari zarur bo'ladi. Aynan shu jarayonda sud taraflardan mustaqil shaxs sifatida ishni hal qilish vazifasini bajaradi. Tortishuv prinsipining muhim tarkibiy qismi bo'lgan taraflar tengligi sudlanuvchining sud

himoyasida bo'lishini ta'minlovchi muhim kafolat hisoblanadi. Ayblov va himoya tarafdagilar dalillar taqdim etish, ish ko'rinishida ishtirok etish, dalillarni o'rganish jarayonida teng protsessual imkoniyatlar asosida ishtirok etishi, ya'ni teng huquqlarga ega bo'lishi, teng majburiyatlarni bajarishi konstitutsiyaviy prinsiplarning amaldagi ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tortishuv protsessual prinsiplar manbasi bo'lishi bilan birga, jinoyat ishlarini yuritishning alohida modeli hamdir. Bunda jinoyat ishini yuritish tarixan shakllangan ikki huquq



tizimi – anglo-sakson va romana-german (kontinental) modellari asosiga qurilganidan kelib chiqish kerak bo'ladi. Shundan ish yurituvning anglo-sakson modeli to'liq tortishuvchanlikka asoslangan bo'lib, isbot qilish jarayonida eng ko'p yuklama taraflarga tushadi.

Aynan tortishuv jarayonida sudning ishtiroki darajasi yuzasidan olimlar o'rtasida yagona yondashuv mavjud emas. Hatto Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibiga kiruvchi davlatlar qonunchiligi ham shu masalada bir-biridan farqli jihatlarga ega. Umuman olganda, zamonaviy jinoyat-protsessual huquq nazariyasida ish yuritishning tortishuv shakli odil sudlovni ta'minlashning eng samarali modeli sifatida tan olinmoqda.

### **Material va metodlar**

Tadqiqotda jinoyat protsessida tortishuvga asoslangan ish yurituvni kuchaytirish bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi

### **Tadqiqot natijalari**

Jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlash jarayonida yana bir muammo kelib chiqadi: dalillarni har tomonlama, to'la va xolisona tekshirish bo'yicha qo'yilgan talablar sudni bu jarayonga mas'ul bo'lgan yagona davlat organiga aylantirib qo'yishi mumkin. Sudning dalillarni o'rganishdagi faol ishtiroki qolgan ishtirokchilarni ish holatlarini to'liq o'rganish mas'uliyatidan ozod etishiga olib kelishi mumkin. Bu esa tortishuvning mohiyatiga putur yetkazib, sudning xolis arbitr vazifasini bajarishiga xavf tug'diradi. Chunki tortishuv mohiyatan quyidagi talablarga javob berishi kerak:

birinchidan, taraflardan har tomonlama mustaqil sudning mavjud bo'lishi. Chunki xolis shaxsning ishtirokini ta'minlamasdan turib, taraflar o'rtasidagi bahs adolatli bo'lishini kafolatlab bo'lmaydi;

ikkinchidan, manfaati bir-biriga qarama-qarshi tomonlarning mavjud bo'lishi: ayblov va himoya;

uchinchidan, tomonlarning protsessual tengligi ta'minlanganligi. Taraflar yetarli protsessual huquqlarga ega bo'lmasdan turib, o'z vazifalarini to'laqonli ro'yobga chiqara olmaydi, qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydi; to'rtinchidan, tomonlar o'rtasida bahs yoki masala yuzasidan turli qarashlar mavjudligi.

Ushbu shartlar tortishuv tushunchasining tarkibiy elementlari bo'lib, ularning majmui ish yuritishning tortishuvga asoslanishini ta'minlaydi. Ulardan hech bo'lmaganda biriga rioya qilinishdan chekinish qo'pol protsessual xatolik hisoblanadi.

Jinoyat-protsessual qonunchilikni tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, sud majlisida raislik qiluvchi, prokuror va boshqa bir qancha shaxslarning ishtiroki sud muhokamasining umumiy shartlari sifatida ko'rsatib o'tilgan. Lekin aynan himoyachi ishtirokining protsessual jihatlari yetarlicha tartibga solinmagan. Bizningcha, mazkur holat bartaraf etilib, himoyachining sud muhokamasidagi ishtirokining huquqiy asoslari kuchaytirilishi zarur. Unda himoyachining dalillarni taqdim etish, dalillarni tekshirishda ishtirok etish, ayblov yuzasidan, sudlanuvchining javobgarligini yengillashtiruvchi holatlar bo'yicha, qo'llangan ehtiyot chorasi va kelib chiqadigan boshqa masalalar yuzasidan o'z munosabatini bildirish huquqi mustahkamlanishi to'g'ri bo'ladi. Shu bilan birga, himoyachi sud majlisida ishtirok eta olmagan va uni almashtirishning imkoni bo'lmagan taqdirda sud majlisi keyinga qoldirilishi kerak. Bunda ishga yangi qo'shilgan himoyachiga sud muhokamasiga tayyorgarlik ko'rish uchun zarur vaqt beriladi, lekin mazkur holat shu vaqtga qadar o'tkazilgan protsessual harakatlarni qayta o'tkazishga asos bo'lmasligi zarur. Lekin, agarda ushbu masalada himoyachi tomonidan iltimosnoma beriladigan bo'lsa, sud bir qator sud harakatlarini qayta o'tkazishi mumkin.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Mazkur huquq institutining ahamiyatini tadqiq etgan olim F.M. Muhitdinov uni "ku-

rash” yoki “tortishuv” jinoyat ishi bo’yicha haqiqatni o’rnatishga va ishni adolatli hal etishga olib kelishi uchun ikki tarafni teng hajmda huquq va majburiyatlar bilan ta’minlash zarurligi [1] bilan izohlagan bo’lsa, bir qator olimlar garchi ularda ish holatlari to’liq va har tomonlama o’rganilmagan bo’lsa-da, sudning tomonlar taqdim etgan dalillargagina asoslanib hukm chiqarishini tortishuvning mazmuni sifatida izohlashadi. Ushbu nuqtayi nazarga ko’ra, sud haqiqatni aniqlashga javobgar emas: [2] u ish holatlarini turli pozitsiyalardan o’rganishga taraflarga imkoniyat yaratib beradi. Ozarbayjon protsessualist olimasi F.M. Abbasova bu borada boshqacha fikrda ekanini bildirgan [3]. Uning fikricha, tortishuv shaklida amalga oshiriluvchi jinoyat ishi yurituvdan yakuniy maqsad jinoyat ishi bo’yicha haqiqatni aniqlash hisoblanadi. Buning uchun sud o’z vakolati doirasida bor imkoniyat va vositalar orqali haqiqat aniqlanishini ta’minlashi kerak.

Sud muhokamasida tortishuvga asoslangan ish yuritish amalga oshishi uchun taraflarga teng protsessual imkoniyatlar yaratish muhim. Bunda ish yurituvda ishtirok etadigan barcha ishtirokchilar emas, balki ayblov va himoya taraflar haqida so’z ketmoqda. Ayrim xorijiy davlatlarda ushbu masala kodeks darajasida mustahkamlangan bo’lib, uni sud muhokamasining muhim shartlaridan biri sifatida belgilash mumkin. Xususan, Moldova JPKning 315-moddasida prokuror, jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar, himoyachi, sudlanuvchi, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari dalillarni taqdim etish, tergovda qatnashish va iltimosnomalarni shakllantirishda sud oldida teng huquqlarga ega ekanligi ko’rsatilgan [4]. Qozog’iston Respublikasi JPKning 23-moddasida [5] sud o’z qarorini tomonlarga teng imkoniyat yaratilgan holatda o’rganilgan dalillarga asoslanishi kerakligi belgilangan. Xuddi shu mazmundagi qoida Qirg’iziston Respublikasi JPKning 18-moddasida aks etgan. Bundan tashqari, 283-moddasida sud muhokamasida tomonlar

huquqlarining tengligi sud muhokamasining umumiy sharti sifatida mustahkamlangan [6]. Unga ko’ra, ayblovchi, himoyachi, jabrlanuvchi, moddiy va ma’naviy zararni qoplashga mas’ul shaxslar iltimosnoma berish va rad qilishda, dalillar taqdim etish va ularni o’rganish jarayonida ishtirok etishda, muzokaraga chiqish va ishni ko’rish jarayonida kelib chiqadigan boshqa masalalarni hal etishda teng huquqlarga ega. Ayni mazmundagi normani Ukraina va Gruziya davlatlari protsessual qonunchiligida ham uchratish mumkin.

Tortishuvga asoslangan ish yuritishni tashkil etishning huquqiy asoslari umum-e’tirof etilgan xalqaro hujjatlarda o’z aksini topgan. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasiga ko’ra, har bir inson unga qo’yilayotgan ayblovning qanchalik asoslilikini aniqlash uchun to’liq tenglik asosida ishi sudda mustaqil va xolis sud tomonidan ko’rib chiqilishi huquqiga ega [7]. Shuningdek, inson huquqlariga doir boshqa xalqaro standartlarda ham protsessdagi taraflarga nisbatan hech qanday kamsitish bo’lishi mumkin emasligi, ularga teng protsessual huquqlar berilishi kerakligi [8] nazarda tutilgan. Aksariyat mamlakatlarda qonunchiligida jinoyat sudlov ishlarini yuritish tomonlarning tengligi va tortishuviga asosan olib borilishi belgilab qo’yilgan. Masalan, Qozog’iston Respublikasi JPKning 23-moddasi “Tomonlar tengligi va tortishuviga asoslangan jinoyat sud ishlarini yuritish” deya nomlangan bo’lib, uning 7-bandi jinoyat protsessida ishtirok etuvchi taraflar Respublika Konstitutsiyasi va JPKda nazarda tutilgan imkoniyatlardan foydalangan holda o’z huquqlarini amalga oshirishlari uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligi belgilangan. Shuningdek, ushbu moddada sud taraflarga dalillarni o’rganish jarayonida ularning teng asoslarda ishtiroki ta’minlangan holda o’rganilgan dalillarga asoslanibgina o’zining protsessual qarorini qabul qilishi mustahkamlangan.



Xuddi shu mazmundagi qoidani Qirg'iziston Respublikasi JPKning 18-moddasi ("To-monlar tengligi va tortishuviga asoslangan jinoyat sud ishlarini yuritish prinsipi")da [10], Moldova JPKning 24-moddasida [11] uchratamiz. Gruziya JPKning 9-moddasi [12] ("Taraflar tortishuvi va tengligi") ham jinoyat protsessi tараflar tengligiga asoslanishini nazarda tutadi.

Ushbu davlatlar tajribasining o'ziga xosligi shundaki, taraflar tengligi qoidasi butun jinoyat ishlarini yuritish davriga nisbatan qo'llangan. Biroq huquq tizimining o'ziga xosligidan kelib chiqadigan bo'lsak, sudgacha bo'lgan bosqichga bu qoidani qo'llab bo'lmaydi. Chunki tergov ishni yuritishga mas'ul bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimining yaqqol ustunligi ostida olib boriladi. Bundan tashqari, yuqoridagi davlatlardan farqli ravishda milliy jinoyat-protsessual qonunchilimiz dastlabki tergov, surishtiruvda qatnashuvchi ishtirokchilarni taraflarga ajratmagan, shuning uchun tergov davrida taraflar ham, o'z-o'zidan ularning tengligi ham mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun taraflar tengligini nazarda tutuvchi qoida sudda ishlarini yuritish davrini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 14-moddasi 3-qismi "d" bandida o'ziga nisbatan ayblov e'lon qilingan shaxs o'z ishtirokida sud qilinish huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan [13]. Biroq O'zbekiston Respublikasi JPKning 410-moddasida sudlanuvchining sud majlisida ishtiroki tartibga solingan bo'lib, unga ko'ra, sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan va bu holat ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalaqit bermagan yoxud tartibni buzganligi uchun sud majlisi zalidan chiqarib yuborilgan bo'lsa, ish uning ishtirokisiz ham ko'rilishi mumkin. Bunday hollarda sud muhokamasida ishtirok etmayotgan bo'lsa-da, ish bo'yicha sudlanuvchi sifatida ishtirok etayotgan shaxsning huquqlariga rioya qilinishi alohida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan masaladir.

Ishni ko'rishda qatnashmayotgan sudlanuvchining huquqlarini sud majlisida kim ta'minlashi kerakligi masalasi qonunchiligimizda ochiq qolgan. Bir qator olimlar mazkur holatda tortishuvchanlik va taraflar tengligini ta'minlash uchun himoyachi ishtiroki majburiy bo'lishi kerakligini ta'kidlashadi [14]. Ularga ko'ra, himoyachi nafaqat ishtirok etishi, balki faol qatnashishi kerak. Ushbu vaziyatda sudlanuvchining pozitsiyasi himoyachiga faqatgina jinoyat ishi materiallaridangina ma'lum bo'ladi. Xuddi shu mazmundagi taklifni boshqa tadqiqot ishlarida [15] ham uchratish mumkin.

Shunisi e'tiborliki, sudlanuvchi sud muhokamasida qatnashmaslik orqali faqatgina sud majlisida ishtirok etish huquqidan mahrum bo'ladi. Bunda himoyachining ishtiroki adolatli hukm chiqishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha kafolat bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun taraflarning qonuniy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ular o'rtasidagi protsessual imkoniyatlar tengligini ta'minlash zarur. Bir qator xorijiy davlatlar, xususan, Moldova, Ukraina, Ozarbayjon, Rossiya Federatsiyasi jinoyat ishlari yurituvida sudlanuvchining ishtirokisiz bo'lib o'tadigan sud muhokamasida himoyachining ishtiroki majburiy etib belgilangan.

Bizningcha, sudda ish yuritish davomida taraflar tengligining ta'minlanishi tortishuv prinsipining tarkibiy qismi bo'lishi kerak va uni alohida prinsip sifatida jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilashga zarurat mavjud emas.

### Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, JPKning 410-moddasi 3-qismini "*Bunday hollarda himoyachi ishtirok etishi shart*" mazmunidagi norma bilan to'ldirish to'g'ri bo'ladi.

Bundan tashqari, tahlil qilinayotgan ayni masalaning jinoyat ishlari yurituviga uchun ahamiyatini inobatga olib, milliy protsessual qonunchiligimizda sud muhokamasida tomonlar huquqlarining tengligini sud muhokamasining sharti sifatida belgilash zarur deb hisoblaymiz.

*Bizningcha, JPKga yangi 4091-modda kiritib, unga yuqorida keltirilgan masalalarni o'z ichiga olgan sud muhokamasining yana bir muhim shartini belgilash zarur.*

Shu bilan birga, JPKning 25-moddasini quyidagi mazmundagi yangi tahrirda ishlab chiqish taklif etiladi:

*25-modda. Sudda ishlarni yuritishda tortishuv*

Birinchi instansiya sudining sud majlisida, shuningdek, ishlar yuqori sudlarda ko'rilayotganda ish yuritish taraflarning o'zaro tortishuvi va tengligi asosida amalga oshiriladi.

Ish sudda ko'rilayotganda ayblash, himoya qilish va ishni hal qilish vazifalari bir-biridan alohida bajarilib, aynan bir organ yoki aynan bir mansabdor shaxs zimmasiga yuklatilishi mumkin emas.

Birinchi instansiya sudida ish yuritish faqat ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasi yoxud tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash uchun ishni sudga yuborish to'g'risidagi qaror mavjud bo'lganda boshlanishi mumkin.

*Sud dalillarni o'rganish jarayonida taraflarning teng asoslarda ishtiroki ta'minlangan*

*holda o'rganilgan dalillarga asoslanib qaror qabul qiladi.*

Davlat va jamoat ayblovchilari, sudlanuvchi, voyaga yetmagan sudlanuvchining qonuniy vakili, himoyachi, jamoat himoyachisi, shuningdek, jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari sud majlisida taraflar sifatida ishtirok etadilar va dalillar taqdim etish, ularni tekshirishda qatnashish, iltimos bilan murojaat qilish, ishning to'g'ri hal etilishi uchun ahamiyatga molik har qanday masala bo'yicha o'z fikrlarini bildirishda teng huquqlardan foydalanadilar.

Sud ayblov yoki himoya tarafida turmaydi hamda ularning biron-bir manfaatlarini ifodalamaydi.

Sud xolislik va beg'arazlikni saqlagan holda taraflar protsessual majburiyatlarini bajarishlari va berilgan huquqlarini amalga oshirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib beradi.

*Taraflar sud, boshqa davlat organlari va mansabdor shaxslardan mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshirish usullari, vositalarini o'zlari tanlaydi. Sud taraflar iltimosiga ko'ra ularning ushbu kodeksda o'rnatilgan tartibda zarur ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi.*

## REFERENCES

1. Muxitdinov F.M. Jinoyat-protsessual shakl: Nazariy va metodologik muammolar [Criminal-procedural form: Theoretical and methodological problems]. PhD thesis. Tashkent, TSIL publ., 2005, 60 p.
2. Bagdasarov R.V. Printsip sostyazatelnosti v ugolovnom protsesse Rossii i stran Yevropeyskogo Soyuz [The principle of adversarialism in criminal proceedings in Russia and the countries of the European Union]. Moscow, Yurlitinform publ., 2008, 216 p. Available at: <https://mgimo.ru/upload/iblock/493/49327214e64d8ed355874959f95c0663.pdf>
3. Abbasova F.M. Teoreticheskiye i prakticheskiye problemy osushchestvleniya printsipa sostyazatelnosti v ugolovno-protsessualnom zakonodatelstve Azerbaydjanskoy Respubliki [The theoretical and practical problem of the establishment of principles of social law in the legal and procedural law of the Republic of Azerbaijan]. PhD thesis. Baku, 2011.
4. Criminal-Procedural Code of the Republic of Moldova dated 14 times in 2003 No. 122-XV. Available at: [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30397729#pos=3760;-31](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=3760;-31)
5. Ugolovno-protsessualniy kodeks Respubliki Kazaxstan [Criminal procedural code of the Republic of Kazakhstan]. Available at: [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575852&doc\\_id2=31575852#pos=3;-103.10227966308594&pos2=1005;-60.10227966308594](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575852&doc_id2=31575852#pos=3;-103.10227966308594&pos2=1005;-60.10227966308594)

6. Uголовно-процессуальный кодекс Республики Киргизии [Criminal procedural code of the Republic of Kyrgyzstan]. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/111530>

7. Universal Declaration of Human Rights. Adopted resolution 217 A (III) of the UN General Assembly on December 10, 1948. Available at: [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/declhr.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml)

8. Human Rights Committee: No. 32 general comments, paragraph 13. Available at: <https://www.icj.org/wp-content/uploads/2013/07/Criminal-Process-in-Uzbekistan-Interactive.pdf>

9. Code of the Republic of Kazakhstan. Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan (with amendments and additions as of 01/01/2024). Available at: [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575852&doc\\_id2=31575852#activate\\_doc=2&pos=1017;-79.10227966308594&pos2=1005;-39.10227966308594](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575852&doc_id2=31575852#activate_doc=2&pos=1017;-79.10227966308594&pos2=1005;-39.10227966308594)

10. Uголовно-процессуальный кодекс Республики Киргизии [Criminal Procedure Code of the Republic of Kyrgyzstan]. Available at: <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ru-ru/112308>

11. Uголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV [Criminal Procedure Code of the Republic of Moldova dated March 14, 2003 No. 122-XB]. Available at: [https://continent-online.com/Document/?doc\\_id=30397729#pos=1075;-59](https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729#pos=1075;-59)

12. Uголовно-процессуальный кодекс Грузии [Criminal Procedure Code of Georgia]. Available at: <https://www.matsne.gov.ge/ru/document/download/90034/37/ru/pdf>

13. International Covenant on Civil and Political Rights. Adopt by resolution 2200 A (CSI) of the General Assembly of December 16, 1966. Available at: [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/pactpol.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml)

14. Popova I.P., Smirnova I.G. Zaочноye sudebnoye razbiratelstvo po ugovolnym delam: problemy realizatsii v kontekste sravnitelno-pravovogo issledovaniya [Trial in absentia in criminal cases: problems of implementation in the context of comparative legal research]. Vestnik. Volga State university. 2018, no. 431. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/zaочноye-sudebnoe-razbiratelstvo-po-ugolovnym-delam-problemy-realizatsii-v-kontekste-sravnitelno-pravovogo-issledovaniya>. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-postanovleniya-zaочноgo-prigovora>

15. Ribinskaya Ye.T. Sostyazatelnost rossiyskogo ugovolnogo sudoproizvodstva pri rassmotrenii del v sude pervoy instansii [The adversarial nature of Russian criminal proceedings when considering cases in the court of first instance]. PhD thesis. Irkutsk, 2008, p. 8. Available at: [https://static.freereferats.ru/\\_avtoreferats/01004153828.pdf?ver=8](https://static.freereferats.ru/_avtoreferats/01004153828.pdf?ver=8)

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL 6-SON

VOLUME 3 / ISSUE 6 / 2023

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.6.

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 21.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 7.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 131.

TDYU tipografiyasida chop etildi.